FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
11-son

UDK: 159.923:316.6

Sagindikova Nargiza Jubatkanovna,
Qoraqalpoq davlat universiteti professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

MAS’ULIYAT MUAMMOSINING NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada mas’uliyat fenomenining psixologik mohiyati, uning shaxs tuzilishidagi o‘rni, shakllanish mexanizmlari va rivojlanish xususiyatlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Mas’uliyat muammosiga doir mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari, xususan, J. Piaje, Z. Freyd, E. Erikson, K.A. Abulxanova-Slavskaya, S.L. Rubinshteyn, K. Muzdibayev, A.F. Plaxotniy va boshqa tadqiqotchilarning nazariy yondashuvlari o‘rganilgan. Shuningdek, mas’uliyatning axloqiy, ijtimoiy, individual-psixologik va faoliyatga oid jihatlari ochib berilgan. Maqolada mas’uliyat shaxsning o‘z xatti-harakatlari, qabul qilgan qarorlari va ularning oqibatlarini anglash, o‘zini o‘zi boshqarish hamda ijtimoiy me’yorlarga ongli munosabat bildirish qobiliyatini ifodalovchi integrativ shaxsiy sifat sifatida talqin etilgan. Talabalarda mas’uliyatni shakllantirishda oilaviy tarbiya, ta’lim faoliyati, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy muhit va kasbiy yo‘nalganlikning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: mas’uliyat, shaxs, talabalar psixologiyasi, o‘quv faoliyati, ijtimoiy mas’uliyat, individual xususiyatlar, o‘zini o‘zi boshqarish, axloqiy me’yorlar, motivatsiya, shaxslararo munosabatlar, kasbiy mas’uliyat.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Аннотация. В данной статье представлен теоретический анализ психологической сущности феномена ответственности, его места в структуре личности, механизмов формирования и особенностей развития. Рассмотрены научные взгляды отечественных и зарубежных исследователей на проблему ответственности, в частности теоретические подходы Ж. Пиаже, З. Фрейда, Э. Эриксона, К.А. Абульхановой-Славской, С.Л. Рубинштейна, К. Муздыбаева, А.Ф. Плахотного и других учёных. Раскрыты нравственные, социальные, индивидуально-психологические и деятельностные аспекты ответственности. Ответственность интерпретируется как интегративное личностное качество, выражающее способность человека осознавать собственные поступки, принимаемые решения и их последствия, осуществлять саморегуляцию и сознательно относиться к социальным нормам. Особое внимание уделено роли семейного воспитания, учебной деятельности, межличностных отношений, социальной среды и профессиональной направленности в формировании ответственности у студентов.

Ключевые слова: ответственность, личность, психология студентов, учебная деятельность, социальная ответственность, индивидуальные особенности, саморегуляция, нравственные нормы, мотивация, межличностные отношения, профессиональная ответственность.

THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROBLEM OF RESPONSIBILITY

Abstract. This article presents a theoretical analysis of the psychological nature of responsibility, its place in the structure of personality, the mechanisms of its formation,

and its developmental characteristics. The scientific views of domestic and foreign scholars on the problem of responsibility are examined, particularly the theoretical approaches of J. Piaget, S. Freud, E. Erikson, K.A. Abulkhanova-Slavskaya, S.L. Rubinstein, K. Muzdybayev, A.F. Plakhotny, and other researchers. The moral, social, individual-psychological, and activity-related aspects of responsibility are explored. Responsibility is interpreted as an integrative personal quality that reflects an individual's ability to understand their actions, decisions, and consequences, exercise self-regulation, and consciously comply with social norms. Particular attention is paid to the role of family upbringing, educational activities, interpersonal relationships, the social environment, and professional orientation in developing responsibility among university students.

Keywords: responsibility, personality, student psychology, educational activity, social responsibility, individual characteristics, self-regulation, moral norms, motivation, interpersonal relationships, professional responsibility.

KIRISH

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida shaxsning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi, o‘z faoliyatini ongli ravishda tashkil etishi va qabul qilgan qarorlari uchun javob bera olishi muhim psixologik hamda ijtimoiy talablardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv, axborot texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanishi, ta’lim va kasbiy faoliyatga qo‘yilayotgan talablarning ortishi shaxs mas’uliyatini rivojlantirish masalasining dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda.

Mas’uliyat insonning shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiy muhitga moslashuvi, faoliyatini mustaqil tashkil etishi va jamiyatdagi o‘rnini anglashida muhim ahamiyat kasb etadi. U faqat muayyan majburiyatlarni bajarish yoki belgilangan qoidalarga rioya qilish bilan cheklanmaydi. Mas’uliyat, eng avvalo, shaxsning o‘z faoliyati mazmunini anglash, uning natijalarini oldindan baholash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni hisobga olish va o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni zimmasiga olish qobiliyatidir.

Psixologik nuqtayi nazardan mas’uliyat shaxsning motivatsion, irodaviy, emotsional va kognitiv xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq. Chunki mas’uliyatli xulq-atvor insondan nafaqat topshiriqni bajarishni, balki uni qanday maqsadda, qanday vositalar yordamida va qanday natijaga erishish uchun amalga oshirayotganini anglashni ham talab qiladi.

Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun mas’uliyatni shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Talabalik davri shaxsning mustaqil hayotga tayyorlanishi, kasbiy dunyoqarashining rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlarining kengayishi va o‘z imkoniyatlarini anglash jarayoni bilan tavsiflanadi. Ushbu davrda shakllangan mas’uliyat hissi kelajakdagi kasbiy faoliyat, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy hayotda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Talabalarda mas’uliyatning rivojlanishi, bir tomondan, oilada shakllangan tarbiya va axloqiy qadriyatlarga, ikkinchi tomondan, ta’lim muassasasidagi

pedagogik muhit, o‘qituvchilar bilan munosabatlar, tengdoshlar ta’siri va shaxsning individual psixologik xususiyatlariga bog‘liq.

Shu sababli mas’uliyat fenomenini nazariy jihatdan chuqur o‘rganish, uning tarkibiy qismlari, rivojlanish mexanizmlari va shaxs faoliyatidagi namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi mas’uliyat muammosiga oid psixologik nazariyalarni tahlil qilish, mas’uliyatning shaxs rivojlanishidagi o‘rnini ochib berish hamda talabalarda ushbu sifatni shakllantirishning psixologik omillarini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mas’uliyat muammosi psixologiya fanida uzoq yillardan buyon o‘rganib kelinayotgan murakkab ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Ushbu fenomen shaxsning axloqiy rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlari, faoliyat motivlari, o‘zini o‘zi boshqarishi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati bilan bog‘liq holda tadqiq etilgan.

Mas’uliyatning nazariy asoslarini o‘rganishda J. Piaje tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Olim bolalarning axloqiy rivojlanishi va qoidalarga munosabatini amaliy o‘yinlar jarayonida o‘rgangan. Uning fikricha, bolalarda axloqiy me’yorlarni anglash va ularga rioya qilish qobiliyati bosqichma-bosqich shakllanadi.

J. Piaje bolalarning o‘yin faoliyatida qoidalarni o‘zlashtirish jarayonini to‘rt bosqich orqali izohlaydi. Dastlab bola harakatlarni individual tajribasi asosida amalga oshiradi va umumiy qoidalarning mazmunini to‘liq anglamaydi. Keyingi bosqichda kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish orqali qoidalarga amal qilishni o‘rganadi. Uchinchi bosqichda tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, o‘zaro kelishish va qoidalarni nazorat qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. To‘rtinchi bosqichda esa bola qoidalarning mazmunini ongli ravishda anglay boshlaydi va ularni o‘zaro kelishilgan ijtimoiy me’yorlar sifatida qabul qiladi.

Mazkur yondashuv mas’uliyatning shakllanishi bolalik davridan boshlanishini va ijtimoiy tajriba hamda o‘zaro munosabatlar jarayonida rivojlanishini ko‘rsatadi. Sh. Azizova ham o‘quv faoliyatini boshqarishda J. Piaje tomonidan asoslangan psixologik qonuniyatlarni hisobga olish muhimligini ta’kidlaydi [2; 23].

Mas’uliyatning psixoanalitik talqinida Z. Freydning super-ego konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Olim shaxsning axloqiy nazorat tizimi shakllanishini ota-ona va ijtimoiy muhit tomonidan belgilangan me’yorlarning ichki o‘zlashtirilishi bilan izohlaydi.

Z. Freyd nazariyasiga ko‘ra, super-ego shaxsning axloqiy talablar, taqiqlar va ideallarni o‘zlashtirishi natijasida shakllanadi. Uning tarkibida vijdon va ego-ideal kabi komponentlar ajratiladi. Vijdon shaxsning o‘z xatti-harakatlarini axloqiy me-zonlar asosida baholashiga xizmat qilsa, ego-ideal insonning o‘z oldiga yuqori maqsadlar qo‘yishi va ularga erishishga intilishini ta’minlaydi.

Mazkur nazariya mas’uliyatning shakllanishida tashqi nazoratning asta-sekin ichki nazoratga aylanishi muhim ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni inson dastlab kattalar talabi asosida xulq-atvorini boshqarsa, keyinchalik ijtimoiy va axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirish orqali o‘z faoliyatini mustaqil tartibga solishga o‘tadi.

E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasida ham mas’uliyatning shakllanishiga alohida e’tibor qaratilgan. Olim tashabbuskorlik, mustaqillik va aybdorlik hissi o‘rtasidagi munosabatlarni shaxs rivojlanishining muhim psixologik omillari sifatida izohlaydi.

E. Erikson fikricha, bolaning tashabbus ko‘rsatishi, yangi faoliyat turlarini o‘zlashtirishi, muayyan vazifalarni mustaqil bajarishi va natijalariga erishishi uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi. Shu bilan birga, o‘z faoliyati natijalarini anglash va xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilish mas’uliyatning rivojlanishiga zamin yaratadi [3; 225].

Mas’uliyatning ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rganishda R.I. Kosolapov, V.S. Markov, A.F. Plaxotniy, T.N. Sidorova, K. Muzdibayev, L.V. Shevchenko va boshqa olimlarning ilmiy qarashlari muhim ahamiyatga ega.

R.I. Kosolapov va V.S. Markov mas’uliyatni shaxs tuzilishining muhim elementi sifatida baholab, uni inson xulq-atvorining yo‘nalishi, erkinligi va ijtimoiy talablar bilan bog‘liq holda izohlaydilar. Ularning yondashuvida mas’uliyat shaxsning jamiyat tomonidan belgilangan me’yorlarni anglash va ularga muvofiq harakat qilish qobiliyatini ifodalaydi.

A.F. Plaxotniy ijtimoiy mas’uliyatni insonning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi muhim shakllaridan biri sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha, mas’uliyat shaxsning ijtimoiy me’yor va talablarni qay darajada o‘zlashtirganligi, ularni o‘z faoliyatida qanday namoyon etishi bilan belgilanadi [5; 128].

T.N. Sidorova mas’uliyatni integrativ shaxsiy sifat sifatida baholaydi. Uning yondashuvida inson o‘z xatti-harakatlari va qarorlarini umumiy maqsadlar, qadriyatlar hamda ijtimoiy talablar bilan muvofiqlashtirishi zarur. Bu esa mas’uliyatning faqat tashqi majburiyatlarga emas, balki shaxsning ichki e’tiqodi va qadriyatlariga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

K. Muzdibayev mas’uliyatni shaxsning ijtimoiy xususiyatlaridan biri sifatida izohlaydi. Uning fikricha, mas’uliyat insonning o‘z zimmasiga olgan ijtimoiy va rolli majburiyatlarini bajarishi, o‘z faoliyati uchun hisob bera olishi hamda jamoada qabul qilingan me’yorlarga rioya qilishi orqali namoyon bo‘ladi [7; 183].

Mazkur yondashuv mas’uliyatning shaxs xarakteri bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Chunki mas’uliyatli inson o‘z faoliyatida intizomlilik, qat’iyatlilik, mustaqillik, vijdonlilik va o‘zini o‘zi nazorat qilish kabi sifatlarni namoyon etadi.

S.L. Rubinshteynning psixologik qarashlarida mas’uliyat insonning hayotiy faoliyati va amalga oshirayotgan harakatlari bilan uzviy bog‘liq holda izohlanadi. Uning fikricha, shaxs o‘z hayot yo‘lini belgilash, qaror qabul qilish va faoliyat natijalarini anglash jarayonida mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi [8].

K.A. Abulxanova-Slavskaya esa mas’uliyatni shaxs faolligining tashabbuskorlik bilan bog‘liq muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida baholaydi. Bu yondashuvda insonning o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etishi, maqsadlarni belgilashi va ularni amalga oshirishga intilishi mas’uliyatning muhim belgilaridan hisoblanadi [1; 14].

E. Zavadsky va L.V. Shevchenko ishlarida mas’uliyatning optimal va formal namoyon bo‘lish shakllari farqlanadi. Optimal mas’uliyatda inson vazifani bajarish jarayonida uning mazmuni, sifati, vaqt chegaralari va yakuniy natijalarini hisobga oladi. Shuningdek, u yangi majburiyatlarni ongli ravishda qabul qiladi, mustaqil qaror chiqaradi va faoliyat natijalari uchun javobgarlikni zimmasiga oladi.

Formal mas’uliyatda esa topshiriq ko‘proq tashqi talab va majburiyat asosida bajariladi. Bunday vaziyatda shaxsning mustaqil tashabbusi, ijodkorligi va ichki qiziqishi yetarlicha namoyon bo‘lmasligi mumkin. Demak, mas’uliyatning mazmuni nafaqat topshiriqning bajarilishi, balki uni bajarishdagi ichki motivatsiya, mustaqillik va ongli munosabat bilan ham belgilanadi.

Umuman, adabiyotlar tahlili mas’uliyatning ko‘p qirrali psixologik hodisa ekanligini ko‘rsatadi. U shaxsning axloqiy rivojlanishi, ijtimoiy tajribasi, motivatsiyasi, o‘zini o‘zi boshqarishi va faoliyatga bo‘lgan munosabatining o‘zaro uyg‘unligi natijasida shakllanadi.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolani tayyorlashda mas’uliyat fenomenining psixologik mohiyatini ochib berish va uning shaxs rivojlanishidagi o‘rnini aniqlashga yo‘naltirilgan nazariy-metodologik yondashuvlardan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, faoliyat nazariyasi, ijtimoiy-psixologik yondashuv hamda shaxs rivojlanishining psixososial qonuniyatlari tashkil etdi.

Maqola doirasida quyidagi nazariy metodlardan foydalanildi:

1. Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish metodi. Mas’uliyat muammosiga oid mahalliy va xorijiy psixologik manbalar, ilmiy maqolalar va nazariy tadqiqotlar o‘rganildi.

2. Qiyosiy tahlil metodi. Turli olimlarning mas’uliyatning mohiyati, tarkibiy qismlari va rivojlanish mexanizmlariga oid qarashlari o‘zaro taqqoslandi.

3. Nazariy umumlashtirish metodi. Mas’uliyatning individual, axloqiy, ijtimoiy va faoliyatga oid jihatlari umumlashtirildi.

4. Tizimli yondashuv metodi. Mas’uliyat shaxsning alohida xususiyati sifatida emas, balki motivatsiya, iroda, o‘zini o‘zi nazorat qilish, ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar bilan bog‘liq yaxlit psixologik tizim sifatida ko‘rib chiqildi.

5. Tasniflash va konseptual modellashtirish metodi. Mas’uliyatning namoyon bo‘lish shakllari, uning rivojlanish omillari va talabalik davridagi psixologik xususiyatlari nazariy jihatdan tizimlashtirildi.

Tadqiqotning konseptual asosida mas’uliyatning shakllanishi va rivojlanishi uzluksiz jarayon bo‘lib, u oilaviy tarbiya, ta’lim faoliyati, ijtimoiy muhit, shaxsiy tajriba va kasbiy faoliyat talablari bilan belgilanadi, degan ilmiy qarash yotadi.

NATIJALAR

Ilmiy adabiyotlar va nazariy yondashuvlarni tahlil qilish natijasida mas’uliyat shaxsning ko‘p komponentli, integrativ psixologik sifati ekanligi aniqlandi. Uning shakllanishi insonning individual xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi, axloqiy qadriyatlari va faoliyat jarayonidagi munosabatlari bilan belgilanadi.

Mas’uliyatning psixologik mazmunini quyidagi asosiy tarkibiy komponentlar orqali ifodalash mumkin:

1. Kognitiv komponent. Shaxsning o‘z vazifalari, majburiyatlari, ijtimoiy me’yorlar va faoliyat natijalari to‘g‘risidagi bilimlari hamda ularni anglash darajasini ifodalaydi. Mas’uliyatli shaxs bajarishi kerak bo‘lgan vazifaning mazmunini, ahamiyatini va oqibatlarini tushunadi.

2. Motivatsion komponent. Shaxsning o‘z zimmasidagi vazifalarni bajarishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, qiziqishi, maqsadga intilishi va mas’uliyatni ongli ravishda qabul qilishini anglatadi. Mazkur komponent insonning faoliyatni faqat tashqi talab tufayli emas, balki ichki ishonch va e’tiqod asosida bajarishida namoyon bo‘ladi.

3. Irodaviy komponent. Shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish yo‘lida qat’iyat ko‘rsatishi, qiyinchiliklarni yengishi, faoliyatini davom ettirishi va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olishini ifodalaydi.

4. Emotsional komponent. Shaxsning o‘z faoliyati va uning natijalariga nisbatan emotsional munosabatini, vijdonlilik, burch hissi, qoniqish va o‘z xatti-harakatlariga nisbatan ichki talabchanlikni qamrab oladi.

5. Xulq-atvor komponenti. Mas’uliyatning amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishini ifodalaydi. Bunda topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish, va’daga vafo qilish, belgilangan me’yorlarga rioya etish, mustaqil qaror qabul qilish va o‘z faoliyati natijalari uchun javob bera olish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi shaxsning mas’uliyatli xulq-atvorini ta’minlaydi. Agar inson vazifaning mazmunini anglasa-yu, uni bajarishga ichki motivatsiyaga ega bo‘lmasa, mas’uliyatli faoliyat to‘liq namoyon bo‘lmasligi mumkin. Xuddi shuningdek, motivatsiya mavjud bo‘lsa-da, o‘zini o‘zi boshqarish va irodaviy sifatlar yetarli rivojlanmagan bo‘lsa, faoliyat natijalarida uzilishlar yuzaga keladi.

Nazariy tahlil asosida mas’uliyatning quyidagi namoyon bo‘lish shakllarini ajratish mumkin:

Shaxsiy mas’uliyat — insonning o‘z hayoti, qarorlari, xatti-harakatlari va shaxsiy rivojlanishi uchun javobgarlikni his qilishi.

Ijtimoiy mas’uliyat — jamiyat, jamoa va boshqa insonlar oldidagi majburiyatlarni anglash hamda bajarish.

Axloqiy mas’uliyat — vijdon, e’tiqod, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy me’yorlarga asoslangan xulq-atvor.

O‘quv mas’uliyati — ta’lim jarayonida bilimlarni egallash, mustaqil ta’lim olish va topshiriqlarni sifatli bajarishga ongli munosabat.

Kasbiy mas’uliyat — tanlangan kasbning ijtimoiy ahamiyatini anglash, kasbiy vazifalarni sifatli bajarish va kasbiy etika talablariga rioya qilish.

Talabalarda mas’uliyatni shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy psixologik va ijtimoiy omillar ham nazariy jihatdan umumlashtirildi.

Birinchidan, oilaviy tarbiya mas’uliyatning dastlabki shakllanish manbalaridan biri hisoblanadi. Oilada bolaning yoshiga mos vazifalarni bajarishi, mustaqil qaror qabul qilishiga imkon berilishi, uning fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘linishi mas’uliyat hissining rivojlanishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, ta’lim faoliyati mas’uliyatni rivojlantirishning muhim ijtimoiy-pedagogik muhiti hisoblanadi. Talabaning mustaqil ta’lim olishi, topshiriqlarni rejalashtirishi, belgilangan muddatlarga rioya qilishi va o‘z bilimini baholashi uning o‘quv mas’uliyatini kuchaytiradi.

Uchinchidan, shaxslararo munosabatlar mas’uliyatning ijtimoiy mazmunini shakllantiradi. Guruhdagi hamkorlik, jamoaviy topshiriqlar, o‘zaro ishonch va majburiyatlarni taqsimlash talabalarda boshqalar oldidagi javobgarlik hissini rivojlantiradi.

To‘rtinchidan, kasbiy yo‘nalganlik mas’uliyatning mazmunini boyitadi. Talaba kelajakdagi kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglagan sari o‘z bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga, kasbiy majburiyatlarini ongli bajarishga intiladi.

Beshinchidan, shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati mas’uliyatli faoliyatning muhim sharti hisoblanadi. O‘z vaqtini rejalashtirish, faoliyatni nazorat qilish, xatolarni tahlil etish va natijalarni baholash mas’uliyatning amaliy namoyon bo‘lishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, mas’uliyatni shakllantirish jarayoni faqat tashqi talab va nazoratga asoslanmasligi, balki shaxsning ichki ehtiyojlari, qadriyatlari va ongli tanlovi bilan mustahkamlanishi lozim.

MUHOKAMA

Mas’uliyat muammosiga oid nazariy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu tushuncha psixologiyada turli ilmiy yondashuvlar asosida izohlangan bo‘lsa-da, ularning barchasida mas’uliyatning shaxs rivojlanishi va ijtimoiy faoliyatdagi muhim o‘rni e’tirof etiladi.

J. Piaje mas’uliyatning shakllanishini bolalarning axloqiy rivojlanishi va qoidalarga ongli munosabatining bosqichma-bosqich rivojlanishi bilan bog‘laydi. Z. Freyd mas’uliyatning ichki axloqiy nazorat bilan aloqador jihatlarini ochib beradi. E. Erikson esa tashabbuskorlik, mustaqillik va shaxsiy faollikning rivojlanishiga e’tibor qaratadi.

Ushbu nazariyalarni o‘zaro taqqoslash mas’uliyatning shakllanishi tashqi ijtimoiy talablarning ichki psixologik mexanizmlarga aylanishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Dastlab bola yoki o‘smir kattalar nazorati va ko‘rsatmalari asosida harakat qilsa, keyinchalik ushbu me’yorlarni o‘zlashtirish natijasida o‘z xulq-atvorini mustaqil boshqarishga o‘tadi.

Ijtimoiy-psixologik yondashuvlarda esa mas’uliyat insonning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy rollari va boshqa insonlar bilan munosabatlari orqali izohlanadi. Bu jihatdan mas’uliyat shaxsning faqat individual xususiyati emas, balki uning ijtimoiy faoliyatini tartibga soluvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Bizning nazarimizda, mas’uliyatni faqat xarakter xususiyati sifatida baholash uning psixologik mohiyatini to‘liq ochib bermaydi. Chunki mas’uliyat shaxsning xarakter xususiyatlari bilan bir qatorda, motivatsiyasi, qadriyatlari, irodaviy sifatlari, o‘zini o‘zi nazorat qilish qobiliyati va ijtimoiy tajribasini ham qamrab oladi. Shu sababli uni integrativ shaxsiy sifat sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Mas’uliyatning yana bir muhim jihati uning optimal va formal shakllarda namoyon bo‘lishidir. Formal mas’uliyatda shaxs vazifani tashqi talab, nazorat yoki jazodan qochish maqsadida bajarishi mumkin. Optimal mas’uliyatda esa inson topshiriqning mazmunini anglaydi, uni bajarishga ichki ehtiyoj sezadi, mustaqil yondashadi va natijasi uchun javobgarlikni zimmasiga oladi.

Bu farq ayniqsa, oliy ta’lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Talabaning faqat o‘qituvchi talabi asosida topshiriq bajarishi bilan o‘z kasbiy rivojlanishi uchun zarur deb hisoblab, mustaqil bilim olishi o‘rtasida jiddiy psixologik tafovut mavjud. Birinchi holatda tashqi motivatsiya ustuvor bo‘lsa, ikkinchi holatda ichki motivatsiya va shaxsiy mas’uliyat yetakchi o‘rin egallaydi.

Talabalarda mas’uliyatni rivojlantirishda o‘qituvchining pedagogik faoliyati ham alohida o‘rin tutadi. O‘qituvchi talabaning mustaqil fikrlashi, tashabbus ko‘rsatishi va qaror qabul qilishini qo‘llab-quvvatlashi, topshiriqlarni bajarishda esa faqat natijaga emas, balki faoliyat jarayoniga ham e’tibor qaratishi lozim.

Shuningdek, talabalarni jamoaviy loyihalar, amaliy mashg‘ulotlar, ijtimoiy tashabbuslar va kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish jarayonlariga jalb etish ularning mas’uliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday faoliyat davomida talaba o‘z qarorlarining nafaqat shaxsiy, balki jamoaviy natijalarga ham ta’sir ko‘rsatishini anglaydi.

Mas’uliyatni shakllantirishda mustaqil faoliyat va refleksiyaning ahamiyati ham katta. Talaba o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilishi, yo‘l qo‘ygan xatolarini anglab yetishi, muvaffaqiyat va kamchiliklar sabablarini aniqlashi orqali o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shu nuqtayi nazardan, mas’uliyatni rivojlantirish jarayonida uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishga e’tibor qaratish lozim:

shaxsning mas’uliyat mazmuni va ijtimoiy ahamiyatini anglashini ta’minlash;

ichki motivatsiya, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

mas’uliyatli xulq-atvorni amaliy faoliyat, hamkorlik va refleksiya orqali mustahkamlash.

Mazkur yo‘nalishlarning uyg‘unligi talabalarda mas’uliyatning barqaror shaxsiy sifat sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Mas’uliyat muammosiga oid psixologik nazariyalar va ilmiy qarashlarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, mas’uliyat shaxsning muhim integrativ psixologik sifati bo‘lib, uning o‘z xatti-harakatlari, qabul qilgan qarorlari va faoliyat natijalari uchun javobgarlikni anglashida namoyon bo‘ladi. U insonning motivatsion, kognitiv, emotsional va irodaviy xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq.

Ikkinchidan, mas’uliyatning shakllanishi bolalik davridan boshlanib, oila, ta’lim muassasasi, tengdoshlar muhiti va keng ijtimoiy munosabatlar ta’sirida bosqichma-bosqich rivojlanadi. Tashqi nazorat va talablarning shaxs tomonidan ichki me’yorlar sifatida o‘zlashtirilishi mas’uliyatning muhim psixologik mexanizmi hisoblanadi.

Uchinchidan, mas’uliyatning optimal va formal namoyon bo‘lish shakllari mavjud. Formal mas’uliyat tashqi talab va majburiyatlarga asoslangan bo‘lsa, optimal mas’uliyat ichki motivatsiya, mustaqillik, tashabbuskorlik va faoliyat natijalari uchun ongli javobgarlik bilan tavsiflanadi.

To‘rtinchidan, talabalarda mas’uliyatni rivojlantirishda oilaviy tarbiya, o‘quv faoliyati, shaxslararo munosabatlar, mustaqil ta’lim, ijtimoiy faollik va kasbiy yo‘nalganlik muhim omillar hisoblanadi.

Beshinchidan, oliy ta’lim jarayonida talabalarning mas’uliyatini rivojlantirish uchun ularni mustaqil qaror qabul qilishga, o‘z faoliyatini rejalashtirishga, topshiriqlarni ongli bajarishga va faoliyat natijalarini baholashga yo‘naltirish zarur.

Oltinchidan, mas’uliyatni rivojlantirishda pedagogik ta’sir faqat tashqi nazorat va talablar bilan cheklanmasligi, balki talabaning ichki motivatsiyasi, mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va shaxsiy pozitsiyasini qo‘llab-quvvatlashga asoslanishi lozim.

Umuman olganda, mas’uliyat shaxsning nafaqat o‘z oldidagi, balki oila, jamoa va jamiyat oldidagi majburiyatlarini anglashini ta’minlovchi muhim psixologik sifatdir. Uni rivojlantirish uzluksiz, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati va ijtimoiy hayotda munosib o‘rin egallashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abulxanova-Slavskaya K.A. Tipologiya aktivnosti lichnosti // Psixologicheskiy jurnal. – 1985. – T. 6. – № 5. – S. 14.

2. Azizova Sh. Yuqori sinf o‘quvchilarida o‘quv faoliyatini boshqarishning psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 1998. – 23-b.

3. Erikson E. Insight and Responsibility. – New York: Norton, 1964. – P. 225.

4. Kupchenko V.E. Osobennosti xarakteristik jiznennogo puti u lits s razlichnym tipom otvetstvennosti: Avtoref. dis. ... kand. psixol. nauk. – Omsk, 2004. – S. 17.

5. Plaxotniy A.F. Problemy sotsialnoy otvetstvennosti. – Xarkov: Vishcha shkola, 1981. – S. 128.

6. Prygin E.S. Proyavlenie fenomena «avtonomnosti-zavisimosti» v uchebnoy deyatelnosti // Novye issledovaniya v psixologii. – Moskva, 1984. – № 2. – S. 91.

7. Muzdibayev K. Psixologiya otvetstvennosti. – Leningrad, 1983. – S. 183.

8. Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psixologii: V 2 t. – T. 2. – Moskva: Pedagogika, 1989.

9. Sagindikova N.J. Talabalar o‘quv faoliyatida mas’uliyatning gender xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2017.

10. Sidorenko E.V. Metody matematicheskoy obrabotki v psixologii. – Sankt-Peterburg: Rech, 2002. – S. 158–177.

11. Slavina L.S. Rol motiva i sposobov povedeniya pri vypolnenii shkolnikami obshchestvennyx poruchеniy // Voprosy psixologii lichnosti shkolnika. – Moskva: Nauka, 1978. – S. 298.